



**Loyiha rahbari:**

F.f.d, dots. Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna

**E-mail:** hamroyeva81@mail.ru

**Tel:** +99891 4040 06 20

**Loyihaning maqsadi:** № IL-402104209 raqamli axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratishdan iborat. Jumladan, loyihada o‘zbek tilining elektron morfologik lug‘ati, o‘zbek tili elektron morfoleksikoni hamda o‘zbek tilining morfologik analizatorini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, respublika va xorijiy jurnallarda loyihani amalga oshirish jarayoni tavsiflangan ilmiy maqolalar hamda morfologik lug‘atning bosma shaklini nashr etish ham loyiha maqsadiga kiradi.

**Loyihaning qisqacha tavsifi:** axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tili morfologik ma'lumotlar bazasi: morfoleksikon va morfologik analizatorining vujudga kelishi o‘zbek tilini komp'yuter ishlovi borasida quyidagi muammolar yechimi topiladi:

- o‘zbek tili leksikasi morfologik jihatdan tasniflanadi;
- Google, Yandex kabi qidiruv tizimlari, Google translate tarjimonida avtomatik ishlov berish sifati oshadi;
- mashina tarjimasini sifati yaxshilanadi;
- o‘zbek tilida turli korpuslar yaratish, korpus birliklariga avtomatik morfologik, semantik ishlov berish imkoni paydo bo‘ladi.

**Kutilayotgan natija:** Loyihaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

O‘zbek tilining morfologik bazasi shakllantiriladi. Morfologik baza lingvistik ta‘minot va dasturiy mahsulot ko‘rinishida bo‘lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

o‘zbek tilining morfologik lug‘ati tuziladi:

elektron va bosma ko‘rinishida nashr etiladi;

o‘zbek tilining morfoleksikoni bazasi ishlab chiqiladi, undan o‘zbek tiliga avtomatik ishlov berish vositalari: morfologik analizator ishlab chiqish, til korpusi, mashina tarjimasini va komp'yuter leksikografiyasi mahsulotlarini ishlab chiqishda foydalanilinish mumkin bo‘ladi;

o‘zbek tili morfologik analizatori va uning lingvistik ta‘minotini ishlab chiqish algoritmi shakllantiriladi;

morfoanalizator uchun so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi morfemalar va qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar qurshovi dasturlash uchun lingvistik modellashtiriladi;

o‘zbek tilining morfologik analizatori ishga tushiriladi.

**Qo‘llanish doirasi:** O‘zbek komp'yuter lingvistikasida til korpuslari, nutq sintezatori, avtomatik tarjima, komp'yuterning o‘zbek tilini tushunish va qayta ishlashiga erishish borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, avtomatik morfologik tahlil vositalari tuzish yaxlit tarzda, monografik planda o‘rganilmagan. O‘zbek tilining zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarida tabiiy tilga ishlov berilishiga erishish, xususan, Google, Yandex, Google translate tizimlarida axborotni qayta ishlash sifatini yaxshilash, til korpuslari, elektron tarjimon, tezaurus, orfokorrektor, ularga dastlabki avtomatik ishlov berish vosita(lingvistik analizator)lari hamda ularning lingvistik ta‘minotini yaratish ijtimoiy ehtiyoji ishning dolzarbligi hamda muhimligini dalillaydi.

**Amalga oshirish:**

2022-2024-yillarga mo‘ljallangan № IL-402104209 raqamli axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” innovatsion loyiha doirasida (1 200 000 000 so‘m)